

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**YULDASHEV RUSTAM DANIYOROVICH**

**FALSAFIY TARBIYA – MILLIY YUKSALISH DAVRIDA  
YOSHLARNING DUNYOVIY VA DINIY DUNYOQARASHINI  
UYG‘UNLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI**

**09.00.04. – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc) on  
philosophical sciences**

**Yuldashev Rustam Daniyrovich**

Falsafiy tarbiya – milliy yuksalish davrida yoshlar dunyoviy  
va diniy dunyoqarashini uyg‘unlashtirishning metodologik asosi .....5

**Юлдашев Рустам Даниёрович**

Философское воспитание – методологическая основа гармонизации  
светского и религиозного мировоззрения молодёжи в период  
национального возрождения.....33

**Yuldashev Rustam Daniyrovich**

Philosophical education – the methodological basis for harmonizing the  
secular and religious worldview of youth during the national renaissance  
period.....65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of works published.....70

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**YULDASHEV RUSTAM DANIYOROVICH**

**FALSAFIY TARBIYA – MILLIY YUKSALISH DAVRIDA**  
**YOSHLARNING DUNYOVIY VA DINIY DUNYOQARASHINI**  
**UYG‘UNLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI**

**09.00.04. – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.DSc/Fal77 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Choriyev Sanjarbek Anvarovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rustamov Ramz Rizoqulovich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi**  
**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “13” iyun soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (917- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “26” May kuni tarqatildi.

(2026-yil “26” May dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**B.B. Namozov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**A.Z. Sharipov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**N.O. Safarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shaxs dunyoqarashi tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ko'p jihatdan falsafiy va diniy ta'lim-tarbiyaning xarakteriga hamda uning g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga bog'liq bo'lib, u bir vaqtning o'zida milliy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar, dunyoviy bilimlar, diniy-ma'rifiy qarashlar ta'sirida shakllanmoqda. Bu holat yoshlar dunyoqarashida tanqidiy fikrlash, mafkuraviy immunitet, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirishni obyektiv zaruratga aylantiradi hamda dunyoviylik va diniylik tamoyillarini uyg'unlashtirish bugungi global ijtimoiy jarayonlarda muhim metodologik ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda jamiyatning barqaror rivojida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishning konsepsiyalari, falsafiy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari, diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, ma'rifiy markazlarida yoshlar tarbiyasi, diniy va dunyoviy bag'rikenglik, ma'rifatlilik hamda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini shakllantirishning mohiyati va rivojlanish tendensiyalari, ichki imkoniyatlari, yangi ta'lim-tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash kabi yo'nalishlarda fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un tarzda shakllanishi va rivojlanishiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini yumshatish umuminsoniy va milliy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan falsafiy ta'lim-tarbiya konsepsiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli falsafiy tarbiyaning jamiyat manfaatlariga mos kelishi, manfaatning tarbiya yo'nalishlarini belgilashi, ta'lim va tarbiyaning dialektik birligi hamda tashkiliy-metodik prinsiplarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, intellektual salohiyatini yuksaltirish, vatanparvarlik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. "Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar o'rtasidagi sog'lom muvozanatni to'liq ta'minlashga yordam beradigan, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega va xalqimiz ma'naviyatini asrlar mobaynida mustahkamlashga xizmat qilib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, azaliy an'ana va urf-odatlarining qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo'l qo'yish hollari uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma'nan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan g'oyaviy tarbiya mexanizmining ta'siri kamaygani sezilmoqda Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oya turkumidagi fanlarga yetarlicha e'tibor berilmayotgani yosh avlod qalbi va ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda"<sup>1</sup>. Shu jihatdan falsafiy ta'lim-tarbiyani yuksaltirish mexanizmlari, tamoyillari, usul va vositalarini hamda Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. — Б.295.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”, 2021-yil 5-iyuldagi O‘RQ-699-son “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Falsafiy ta’lim-tarbiyaning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishi yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Philosophy of Education Society of Great Britain (PESGB) (Angliya), The Association for Contemplative Mind in Higher Education (AQSh), Columbia University (Kolumbiya), Metaphysics Research Lab Stanford University (AQSh), Brock University (Kanada), Ludwig Maximilian University (Germaniya), Belarusian State University (Belorussiya), Moscow Institute of Psychoanalysis (Rossiya), Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Samarqand Hadis ilmi maktabi, Mir Arab oliy madrasasi kabi ilmiy-tadqiqot

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.philosophy-of-education.org/>; <https://www.contemplativelife.org/>; [www.columbia.edu/](http://www.columbia.edu/); <https://mally.stanford.edu/>; <https://discover.columbia.edu/>; <https://www.unipage.net/>; <https://inpsycho.ru/>; <https://www.samdu.uz/cy> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

muassasalari (O'zbekiston) tomonidan muammoning metodologik, ilmiy-amaliy jihatlarini qamrab oluvchi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda falsafiy ta'lim va tarbiyani zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish, shu asosda dunyoviy va diniy dunyoqarashni shakllantirish masalalari bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda, bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: falsafiy ta'lim-tarbiyani o'rganish, o'qitish va amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan (Philosophy of Education Society of Great Britain-PESGB, Angliya); falsafasining ta'lim-tarbiya amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar aniqlangan (Columbia University); ta'lim-tarbiya mutaxassislariga adolatli va rahmdil jamiyat qurish uchun falsafa ilmini o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan (The Association for Contemplative Mind in Higher Education, AQSh); falsafiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi rasmiy metafizik ontologiyani rivojlantirish ekanligi rasmiy ravishda tizimlashtirilgan (Metaphysics Research Lab Stanford University, AQSh); ta'lim va tarbiya texnologiyalari, tasviriy san'at va media ta'limi texnologiyalarini o'rganish va o'rgatish ishlari bo'yicha istiqbolli dasturlar yaratilgan (Brock University, Kanada); falsafa ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash metodikalari ishlab chiqilgan (Ludwig Maximilian University, Germaniya); falsafa, psixologiya, sotsiologiya, aloqa va ijtimoiy ishdagi fundamental bilimlarga zamonaviy yondashuvlar metodikasi takomillashtirilgan (Belarusian State University, Belorussiya); ta'lim-tarbiya asoslarini o'rganishda nafaqat nazariy, balki ilmiy jamoatchiligi bilan birgalikda tadqiq qilishning ruhiy jihatlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan (Moscow Institute of Psychoanalysis, Rossiya); falsafiy ta'lim falsafasi ta'lim jarayonini rivojlantirishning nazariy-konseptual asosi ekanligi asoslangan (Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston), diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning yoshlarni axloqiy tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati, diniy bag'rikenglikni yanada kuchaytirishning usul va vositalari ishlab chiqilgan (O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston).

Dunyoda falsafiy va diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya ishlarini faollashtirish natijasida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: falsafiy ta'lim-tarbiyaning metodologik ahamiyatini kuchaytirish; diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning axloqiy-ma'naviy normalarining amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish; ziyorat turizmi salohiyatini manzilli targ'ib qilish; ta'lim-tarbiya tizimini boshqarishning ijtimoiy falsafiy, ruhiy-ma'naviy o'ziga xos konseptual tamoyillari borligini asoslash; falsafiy ta'lim va tarbiyaning chuqur integratsiyalashib borish jarayonini kengaytirish; ta'lim-tarbiyani degradatsiyalanishiga olib keluvchi omillarining oldini olish va bartaraf etish; falsafiy va diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning ichki imkoniyatlari va rivojlanish tendensiyalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish kabilar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Shaxs ong-tafakkurida falsafiy jihatdan dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirish asosida yangicha

dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish masalalar bo'yicha ilmiy izlanishlarni quyidagicha tarzda guruhlashtirib tadqiq etish maqsadga muvofiq:

*Birinchi guruhga* jahonda yosh avlodlarning jamiyat rivojidadagi o'rnini har tomonlama tadqiq etish muammosi K.Mangeym tomonidan tahlil etilgan, G.Markuze yosh avlodning begonalashuv muammolarini, F.Tenbruk yosh avlodning ijtimoiy shartli rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni, P.Sak esa yoshlarning ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy "kamolot"ini, E.Shpranger yoshlar siyosatini, E.Erikson ijtimoiy-madaniy omillar majmuini, Yu.Xolasinskiy, G.Griese yoshlik o'ziga xos submadaniyat hodisasi sifatida tadqiq etishadi. MDH olimlaridan I.S.Kon yoshlarni ijtimoiy-demografik guruh, V.T.Lisovski yoshlar ijtimoiy rollarini, A.S.Panarin yoshlarni jadal rivojlantirish, I.M.Iinskiy yoshlik harakatlantiruvchi kuch kabi masalalarga oid tadqiqotlar olib borganlar. O'zbekistonlik yosh tadqiqotchilardan A.Xudoyberdiev, F.R.Xudjakulova, X.K.Xudoyberdiyeva yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy muammolarini, D.M.Xudoyberdiyev yoshlarda iste'molchilik xulqi, M.M.Raxmatova yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda siyosiy institutlarning o'ri, O.H.Bazarov talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq qilganlar<sup>3</sup>.

*Ikkinchi guruh* falsafiy tarbiya haqidagi tadqiqotlar hisoblanib, bunda R.Berrou falsafiy-psixologik g'oyalarni ilgari surishda qo'llaniladigan bilim sohasi, A.Xarris maqsadli-axloqiy refleksiya, T.Bafford madaniy qadriyatlar kabi falsafiy tarbiyaning modelini tahlil qilishadi. MDH olimlaridan I.A.Bulgakova falsafiy tarbiya falsafasining ontologik va antropologik yo'nalishlarini, B.T.Lixachev falsafiy tarbiyani bolalar va yoshlarga tarbiya berish amaliyotida qo'llash zarurligini tadqiq qilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchilardan F.Q.Mo'minov falsafiy tarbiyaning mamlakat ma'naviy rivojlanishidagi o'rnini tadqiq qilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Манхейм, К. Диагноз нашего времени. Пер. с нем. и англ. – М.: Юрист, 1997. – С.146-147.; Маркузе Г. Одномерный человек.- М.:Госполитиздат, 1994. –С. 234.; Tenbruck F. Jugend und Gesellschaft. Freiburg, 1965. S. 181; Sak P. Socialni vyvoi mladeze. Praha, 1985. S. 83; Шпрангер Э. Психология юношеского возраста. – М.: Мысль, 1995.-С.89.; Эриксон Э. Детство и общество. - СПб.: Балашиха АСТ, 1996. – С.58.; Golebiowski W. Dialog pokolen: Stadia nad socjologi i Kultur. Zagodnieniami dialogu i nastepstwa pokolen w Polsche XX wieku. Warszawa 1980.-С.486.; Griese Н.М. Sozial wissenschaftliche jugend theorien. Wienheim, 1977. –С.11.; Кон И.С. Молодёжь. Философский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1989. – С. 375.; Лисовский В.Т. Эскиз к портрету: жизненные планы молодёжи. – М.: Наука, 1992.-С.7.; Панарин А.С. Философия политики . -М.: МГУ, 1994. – С.217.; Ильинский И.М. Молодёжь и молодёжная политика: философия, история, теория.– М.: Голос, 2015. – С.480-481.; Худойбердиев А.Қ. Узлуксиз таълим тизимида ёшларнинг ахборот маданиятини такомиллаштириш: ижтимоий-фалсафий таҳлил. –Монография. – Тошкент: Dest-publish,2024.; Худжакулова Ф.Р. Ўзбекистон тараққиётининг юксалиш босқичида ўқувчи ёшларнинг миллий мафкуравий онгини шакллантириш: муаммо ечимлар. Монография. – Т.: "ТАМАДДУН", 2022.; Худойбердиева Х.К. Миллий юксалиш жараёнида ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг маънавий-ахлоқий муаммолари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc) диссертацияси автореферати.- Самарқанд-2023.; Худайбердев Д.М. Ёшларда истеъмолчилик хулқининг шаклланиши:мазмуни ва шакллари,сабаблари ва оқибатлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.- Самарқанд- 2020.; Базаров О.Х. Талаба-ёшлар маънавий-ахлоқий онгини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.- Тошкент-2019;

<sup>4</sup> Данилова Н.Н. Влияние постнеклассической науки и развитие философия образования./ Философия образования- 2007 -№1(18) С.56-62.; Булгакова Н.А.Философия воспитания:монография.- Москва:ИНФА-М,2023. -221 с.; Лихачев Б.Т. Философия воспитания:спец.курс. – М.:”Гуманитар.изд.центр ВЛАДОС,2010. - 335 с.; Мо'minov Fazliddin Qobil o'g'li. (2025). Falsafiy tarbiya – jamiyatning ma'naviy rivojlantirishdagi o'ri.

*Uchinchi guruh diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning axloqiy-ma'naviy jihatdan ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar kiradi. Bunda Suqrot, Aflotun, Arastu, Siserondan tortib, Avgustin, Dun Skot, Foma Akvinskiy, G.Galileygacha, undan keyin esa R.Dekart, F.Bekon, L.Feyerbax, I.Kant, Gegel, D.Dyui, R.Karnap, G.Gadamer, E.Fromm, E.Taylor, M.Buber, N.Berdiyev kabi faylasuflar tomonidan metodologik ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha konsepsiyalar ishlab chiqilgan. MDHda L.Shternberg, I.Ilin, D.V.Pivovarov. L.I.Plotnikova, N.O.Losskiy kabi tadqiqotchilar ezgulikning birlamchiligini, yovuzlikning Xudo tomonidan yaratilgan axloqiy pog'onalarning buzilishidan kelib chiqqanligini ta'kidlashadi. Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Ulug'bek dunyoviy ilmlarni yuksak cho'qqilarga olib chiqqan bo'lsa, Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Hakim Termiziy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi islom olamining mashhur allomalari diniy ilmlarni chuqur o'rganib, ularni ilm-fan darajasiga ko'targanlar. O'zbekistonlik tadqiqotchilardan N.A.Shermuhamedova, Q.N.Nazarov, A.Erkayev, J.Ya.Yaxshilikov, S.Jamolovlar dunyoqarashning o'zgarib borish tendensiyalari, N.Komilov, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, N.Hoshimov tadqiqotlar olib borgan va bormoqdalar. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida J.Bozorboyev yoshlarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalarini, N.Sh.Xudoynazarov esa o'quvchi yoshlarda ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy differensial xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan<sup>5</sup>.*

journal of education, ethics and value, 4(1), 131–135. Retrieved from. <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/1142>.

<sup>5</sup> Сократ//Суриков И.Е. Сократ.-М.:Молодая гвардия, 2011.-384с., Афлотун. Давлат:насрий дoston. (Сукрот, Главкон ва бошқ.) – Тошкент:Янги аср авлоди,2024., Афлотун.Қонунлар.- Тошкент:Янги аср авлоди,2008., Арасту. Ахлоқи кабир. — Тошкент:Янги аср авлоди,2015.,Цицерон.Нотиклик санъати ҳақида икки рисола.- Тошкент:Янги аср авлоди,2007.; Августин. О Троице / Пер. А. А. Тащиана. — Краснодар: Глагол, 2004. — 416 с. — (Серия «Патристика. Тексты и исследования»). Августин. Проповеди. // Вестник древней истории. — 2007. — № 3., Блаженный Иоанн Дунс Скот. Избранное / Составление и общая редакция Г. Г. Майорова. — М., 2001. — 583 с. Аквинский Фома. Сумма теологии / Пер. С. И. Еремеева и А. А. Юдина. — Ч. I. Вопросы 1—43. — Киев: Эльга-Ника-центр; М.: Элькор-МК, 2002. — 560 с., Галилео Галилей. Избранные труды в двух томах. — М.: Наука, 1964.; Декарт Р. Сочинения в двух томах. — М.: Мысль, 1989, Фрэнсис Бэкон и принципы его философии // Фрэнсис Бэкон: Сочинения в двух томах. - М.: “Мысль“, 1971., Фейербах Л.Сочинения. В 2 т. — М.: Наука 1995., Иммануил Кант. Лекции о философском учении о религии / И. Кант; пер. с нем. Л. Э. Крыштоп. — М.: Канон+, 2016., Гегель. Вера и знание. Работы ранних лет / Пер. с нем., вступ. статья, примеч. А. А. Иваненко. — СПб.: Умозрение, 2021.; Дьюи Дж. От ребёнка — к миру, от мира-к ребёнку (Сб. статей). — М.: Карапуз, 2009., Карнап, Р. Значение и необходимость. Исследование по семантике и модальной логике. М.: ЛКИ, 2007., Гадамер Г.Г. Диалектическая этика Платона: феноменологическая интерпретация «Филеба» / пер. с нем. и предисл. О.А.Коваль. СПб.: С.-Петербургское философское о-во, 2000., Фромм Э. Озодликдан қочиш.- Тошкент:Янги аср авлоди, 2021, Тайлор Э.Б. Первобытная культура. — М.: Политиздат, 1989., Бубер М. Изречённое слово (пер. А. Н. Портнов) // Философия языка и семиотика. — Иваново: ИВГУ, 1995., Бердяев Н.А. Диалектика божественного и человеческого. – Москва: АСТ ФОЛИО, 2005, Штернберг Л. Эволюция религиозных верований. Москва: Юрайт, 2018.; Штернберг Л. Эволюция религиозных верований. – Москва:Юрайт, 2018.-С.23, 438-440.; Ильин И. Религиозный смысл философии. – Москва: Аст, 2003. - С.15. Лосский Н.О. Бог и мировое зло. – Москва: Республика, 1994 - С. 346-347., Пивоваров Д.В. Философия религии. - Екатеринбург, Деловая книга. - 2006., Плотникова Л.И. Психология религии. Часть 2. –Екатеренбург: ЗапГГПУ, 2009.; Шермухамедова Н.А. Дунёқараш// Шермухамедова Н. Фалсафа. – Тошкент:”НОШИР”, 2012.- Б.62-73., Назаров Қ. Дунёқараш // Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-қитоб. –Т,:” Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. — Б.340., Эркаев А. Маънавиятшунослик. 2-қитоб.- Тошкент: “Маънавият, 2018. –Б.406-416., Яхшилик Ж.Я. Дунёқараш// Яхшилик Ж.Я. Фалсафа. Дарслик. – Самарқанд: СамДу нашриёти,-Б.13-21Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи қитоб. –Тошкент:”Шарқ”,1999., Шайх

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar va olimlarning ilmiy izlanishlari yoshlar tarbiyasi, din va dunyoviylik, bag‘rikenglik, ma‘rifiy islom, masalalari bo‘yicha qator yutuqlarga ega va nazariy-metodologik ahamiyatga molik. Biroq mavjud tadqiqotlarda falsafiy tarbiyaning yoshlar dunyoqarashidagi o‘rnini, uning konseptual prinsiplari, vazifalari kompleks tadqiq etilmagan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqot ishida Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida mamlakatimiz yoshlariga falsafiy tarbiya berish asosida, ularning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy- tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq SU-01-son “O‘zbekistonda ijtimoiy – ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashning falsafiy asoslari” nomli tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** milliy yuksalish davrida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘un shakllantirishda falsafiy tarbiyaning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“falsafiy tarbiya”, “diniy-ma‘rifiy ta‘lim-tarbiya”, tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berish hamda yoshlar ongida yangicha dunyoqarashni shakllantirish zaruratini asoslash;

dunyoviy va diniy dunyoqarash uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini asoslab berish, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy-amaliy jihatdan baholash;

falsafiy tarbiya konsepsiyalari, ularning yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘unlashtirishdagi ahamiyatini ochib berish;

diniy-ma‘rifiy ta‘lim-tarbiya komponentlarining yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘un shakllantirishda o‘rnini asoslash;

yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘unlashtirishning tashkiliy-metodik prinsiplari, metodlari va ularni qo‘llash shartlarini ishlab chiqish;

“Yangi O‘zbekistonda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi”ni ishlab chiqish zaruratini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida yoshlar dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Yangi O‘zbekistonda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘unlashtirishning ijtimoiy-falsafiy qonuniyatlari, metodologik prinsiplari, konseptual asoslari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy bilishning dialektik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy-tipologik, tizimli va faktorial tahlil, germenevtik tahlil, kontent-tahlil, umumlashtirish, modellashtirish sotsiometrik kabi usullaridan foydalanilgan.

---

Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф., Олам ва одам, дин ва илм, — Т.: “ Ҳилол-Нашр”, 2021., Нозимжон Ҳошимов. Аллоҳнинг мўжизалари. Куръони Каримдаги илмий мўжизалар.- Тошкент:”Китобдор нашр”, 2024.; Бозорбоев Ж. Ёшларда илмий дунёқарашни шакллантириш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.Худойназаров Н.Ш. Ўқувчи ёшларда илмий ва диний тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий дифференциал хусусиятлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд - 2022.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

falsafiy ta'limning "assotsiativ-reflektor", "yoshlar aqliy qobiliyat va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirib borish", "rivojlanib boruvchi falsafiy ta'lim" va "innovatsion ta'lim" konsepsiyalarining yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirishdagi kognitiv(dunyoviy bilim va diniy-ma'rifiy tasavvurlarni o'zaro bog'liq holda idrok etish), axloqiy-me'yoriy (e'tiqod, axloq, mas'uliyat, bag'rikenglik va fuqarolik pozitsiyasini muvozanatlashtirish), reflektiv-analitik (diniy va dunyoviy qarashlarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish) ahamiyati aniqlashtirilgan;

falsafiy tarbiyaning jamiyat manfaatlariga mos kelish, tarbiya yo'nalishlarini belgilash, ijtimoiy buyurtmaga muvofiqlik, ta'lim va tarbiyaning dialektik birligi, ta'limning tarbiya jarayonini ilmiylashtirishi, tarbiyaning ta'limni insoniylashtirib borishi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining uzviy aloqadorligi kabi qonuniyatlari ochib berilgan;

yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishda diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning e'tiqodga nisbatan mustaqil fikr yuritish, diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini tushunish va tushuntirish, Allohni anglashda tabiat mo'jizalarini ilmiy-ma'rifiy asosda o'rganish kabi komponentlari yoshlar ongida aqida va tafakkur, e'tiqod va bilim, diniy anglash va dunyoviy idrok o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi metodologik omillar sifatida asoslangan;

yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning jamoaviylik, oshkorlik, keng qamrovlilik, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zaro hamjihatlik, istiqbolni ko'zlash, onglilik, mas'uliyat, yuksak talabchanlik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish, samarali mehnat qilishga o'rgatish kabi tashkiliy-metodik prinsiplari hamda ishonirish, namuna ko'rsatish, odatga aylantirish, mashq qildirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va jazolash metodlari dalillangan;

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda uni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonining ijtimoiy(yoshlar faolligini oshirish, barqarorlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, hamkorlik va o'zaro ishonchni kuchaytirish), ma'naviy (milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy immunitet va mafkuraviy hushyorlikni shakllantirish), ma'rifiy (dunyoviy bilim va diniy-ma'rifiy tushunchalarni uyg'un anglash, jaholatga qarshi ma'rifat tamoyili asosida yoshlarning intellektual salohiyatini kuchaytirish) zarurati asoslab berilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

falsafiy tarbiyaning yoshlar ongida dunyoviy bilim, diniy-ma'rifiy madaniyat (insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviy poklanish, ijtimoiy mas'uliyat va ekstremistik g'oyalarga qarshi ma'rifiy immunitetni shakllantirish), tanqidiy tafakkur, axloqiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini birlashtiruvchi xususiyatlari ochib berilgan;

dunyoviy va diniy dunyoqarashni uyg'unlashtirish tizimini milliy g'oya, ma'naviy tarbiya, dunyoviy bilim, diniy-ma'rifiy madaniyat, huquqiy ong va tashkil etishi, strukturasi, oila, ta'lim muassasalari, mahalla, yoshlar tashkilotlari va diniy-ma'rifiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik, elementlarini esa bilim, e'tiqod, qadriyat,

axloq, mas'uliyat, bag'rikenglik va ijtimoiy faollik tashkil qilishi ilmiy jihatdan asoslangan;

falsafiy tarbiyaning yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishdagi ma'rifiy, aksiologik, tanqidiy-tahliliy, integrativ, profilaktik, kommunikativ va ijtimoiy barqarorlashtiruvchi funksiyalariga tayangan holda yoshlar ongida sog'lom e'tiqod, mustaqil fikrlash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga hurmat, axloqiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy-metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan;

“Yangi O'zbekistonda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi”ni yaratish hamda uni amaliyotga joriy etishda ma'rifatlilik tamoyili bo'yicha maxsus o'quv-seminarlar, ma'rifiy suhbatlar tizimini yo'lga qo'yish, bag'rikenglik tamoyili bo'yicha muloqot maydonlari va ijtimoiy hamkorlik loyihalarini tashkil etish, huquqiylik tamoyili bo'yicha huquqiy targ'ibot va amaliy treninglarni kuchaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, birlamchi manbalarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, ta'lim tarbiya muassasalari va mahallalarda o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalar va tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dunyoviy va diniy dunyoqarashlarni uyg'unlashtirish bilan bog'liq yangi ilmiy tushuncha va ta'riflarni ishlab chiqishda, “falsafiy tarbiya” tushunchasini yoshlarning aqliy, axloqiy, ma'naviy, diniy-ma'rifiy va fuqarolik ongini uyg'un rivojlantiruvchi konseptual vosita sifatida ochib berishda, yoshlarda tanqidiy fikrlash, qadriyatga munosabat, mas'uliyatli tanlov, ma'rifatli e'tiqod, bag'rikenglik madaniyati va ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi metodologik tizim sifatida baholashda, nazariy-metodologik manba sifatida, shuningdek, yoshlar dunyoqarashida dunyoviy bilimlar, diniy-ma'rifiy tushunchalar, axloqiy me'yorlar, huquqiy madaniyat, milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, jamiyat barqarorligi, ma'naviy xavfsizlik, diniy bag'rikenglik, ekstremistik va radikal g'oyalarga qarshi ma'rifiy immunitetni shakllantirishda hamda “Falsafa”, “Dinshunoslik”, “Din falsafasi” fanlarining ilmiy-nazariy ma'lumotlarini-konseptual boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ta'lim-tarbiya jarayonini isloh qilishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirishda, yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning mazmunini boyitish, ta'lim muassasalarida dunyoviy va diniy bilimlar o'rtasidagi sog'lom muvozanatni ta'minlashga qaratilgan oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari, mahalla, oila, yoshlar tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifat

markazlari hamda diniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida, shuningdek, diniy radikallashuv, ma'naviy bo'shliq, befarqlik va dunyoqarashdagi parokandalik kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar, ma'naviyat targ'ibotchilari, psixologlar, mahalla faollari, diniy-ma'rifiy soha mutaxassisleri va davlat tashkilotlari uchun nazariy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, "Yangi O'zbekistonda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqishda, diniy-ma'rifiy profilaktika ishlarini samarali tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda yoshlarga falsafiy ta'lim-tarbiya berish orqali ularning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un tarzda shakllantirish va rivojlantirish zarurati bilan bog'liq olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

falsafiy ta'limning "assotsiativ-reflektor", "yoshlar aqliy qobiliyat va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirib borish", "rivojlanib boruvchi falsafiy ta'lim" va "innovatsion ta'lim" konsepsiyalarining yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirishdagi kognitiv(dunyoviy bilim va diniy-ma'rifiy tasavvurlarni o'zaro bog'liq holda idrok etish), axloqiy-me'yoriy (e'tiqod, axloq, mas'uliyat, bag'rikenglik va fuqarolik pozitsiyasini muvozanatlashtirish), refleksiv-analitik (diniy va dunyoviy qarashlarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish) ahamiyatiga oid ilmiy xulosalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil chora-tadbirlar dasturining VIII "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari, aholi o'rtasida radikalizm illatini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar" 56-band "Jamiyatda radikallashuv kuchayishini oldini olish, yoshlar ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga qaratilgan turli xil harakatlarga qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalarni belgilash va amalga oshirish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 6-noyabrdagi 10/730-son ma'lumotnomasi). Natijada, falsafiy tarbiya milliy yuksalish davrida yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning metodologik asosini o'rganishga xizmat qilgan;

falsafiy tarbiyaning jamiyat manfaatlariga mos kelish, tarbiya yo'nalishlarini belgilash, ijtimoiy buyurtmaga muvofiqlik, ta'lim va tarbiyaning dialektik birligi, ta'limning tarbiya jarayonini ilmiylashtirishi, tarbiyaning ta'limni insoniylashtirib borishi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining uzviy aloqadorligi kabi qonuniyatlariga oid ilmiy yangilik va xulosalardan "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazining 68-11/78 raqam "Aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamoatchilik ta'sirini oshirishning innovatsion yo'llarini joriy etish" mavzusidagi grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan ("Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazining 2025-yil 2-noyabrdagi 18-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning tashkiliy metodik prinsiplari hamda metodlarini muvaffaqiyatli qo'llashda manba bo'lib xizmat qilgan;

yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishda diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning e'tiqodga nisbatan mustaqil fikr yuritish, diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini tushunish va tushuntirish, Allohni anglashda tabiat mo'jizalarini ilmiy-ma'rifiy asosda o'rganish kabi komponentlari yoshlar ongida aqida va tafakkur, e'tiqod va bilim, diniy anglash va dunyoviy idrok o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi metodologik omillarga oid xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining yoshlar o'rtasida diniy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini takomillashtirish, diniy bag'rikenglik, huquqiy madaniyat va sog'lom e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 30-oktyabrdagi 02-02/02/1/3018-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar o'rtasida dunyoviy bilim va diniy-ma'rifiy savodxonlikni uyg'un rivojlantirish, sog'lom e'tiqod, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat va axloqiy mas'uliyatni shakllantirish, diniy mutaassiblik va ekstremistik g'oyalarga qarshi ma'rifiy immunitetni kuchaytirishga xizmat qilgan;

yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning jamoaviylik, oshkoralik, keng qamrovlilik, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zaro hamjihatlik, istiqbolni ko'zlash, ongillik, mas'uliyat, yuksak talabchanlik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish, samarali mehnat qilishga o'rgatish kabi tashkiliy-metodik prinsiplari hamda ishontirish, namuna ko'rsatish, odatga aylantirish, mashq qildirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va jazolash metodlariga doir xulosalar, taklif va tavsiyalardan "Samarqand viloyati teleradiokanali"ning 2025-yil-"Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida yaratilgan ko'rsatuv va eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda, jumladan Samarqand telekanalida 2024-2025-yillarda efirga uzatilgan "Samarqand tamadduni" nomli ko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanalining 2025-yil 6-noyabrdagi 01-07/355-son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekistonda yoshlarga falsafiy tarbiya berish orqali, ularning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishning ma'naviy ma'rifiylikka asoslangan bilimlarining dinamik o'sishiga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda uni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonining ijtimoiy(yoshlar faolligini oshirish, barqarorlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, hamkorlik va o'zaro ishonchni kuchaytirish), ma'naviy (milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy immunitet va mafkuraviy hushyorlikni shakllantirish), ma'rifiy (dunyoviy bilim va diniy-ma'rifiy tushunchalarni uyg'un anglash, jaholatga qarshi ma'rifat tamoyili asosida yoshlarning intellektual salohiyatini kuchaytirish) zaruratiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 11-noyabrdagi 4-10-21-6064-son ma'lumotnomasi). Natijada har bir yoshning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarining uyg'unlashgan tarzda shakllanish va rivojlanishiga motivatsiya beruvchi kuch sifatida xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 219 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan zamonaviy yoshlar ongida yangicha dunyoqarashni shakllantirish muammolari, jamiyatda dunyoviy va diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni uyg'unlashtirishning konseptual jihatlari tadqiq etilgan.

Yangi O'zbekiston orzusini amalga oshirishdagi eng muhim, qolaversa asosiy omillardan biri bu yoshlarning yangicha mazmundagi o'zbekona dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. “Yoshlar” atamasining ishchi ta'rifi har bir mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy, g'oyaviy-mafkuraviy omillarga qarab belgilanadi va bir birlaridan farq qiladi. Shu ma'noda, *yoshlar – bu mamlakat aholisining o'ziga xos psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik, konfliktologik, rol o'ynashlik, submadaniylik, stratifikatsiyalik, ijtimoiylashuvchanlik va moslashuvchanlik, akseologik, subyektivlik kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan dunyoviy va diniy dunyoqarashi dinamik tarzda o'zgarib, shakllanib, rivojlanib boradigan muayyan yoshdagi kishilarning ijtimoiy guruhidir*, - deyish maqsadga muvofiq. Ana shunday dinamik tarzda ruhiy-ma'naviy o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan yoshlarning dunyoqarashini Yangi O'zbekiston orzusini amalga oshirish oqimiga yo'naltirish murakkab ijtimoiy-falsafiy muammolar qatoriga kiradi. Bu esa o'z navbatida ularga falsafiy ta'lim-tarbiya berish, diniy-ma'rifat ziyosidan bahramand qilish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotchi fikricha, XXI asr falsafiy ta'lim-tarbiya orqali yoshlarning ongida insonparvarlikka asoslangan yangicha dunyoqarashni shakllantirish ishlarini boshi berk ko'chaga burib yubormoqda. Bunga sabab nima, jamiyatda, shu jumladan

uning falsafiy ta'lim-tarbiya tizimida vujudga kelgan quyidagi bir qator muammolarning mavjudligidir.

1. *Jahonda kechayotgan axborotlarning nihoyatda shov-shuvli ekanligi.* Axborotlar shovqin-suroni – bu globallashayotgan zamonaviy jamiyatda axborot tarqatish hajmi va tezligining keskin o'sib borish jarayoni bo'lib, bu jarayon falsafiy ta'lim-tarbiya mazmunini qayta ko'rib chiqish zaruratining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

2. *Jamiyat hayotining tez sur'atlar bilan axborotlashib borishi* – bu ommaviy axborot vositalari, shuningdek global axborot tarmoqlari ma'lumotlar bazalarining yaratilishi va kompyuterdan unumli foydalanishning kun sayin rivojlanib borishi natijasidir desak xato qilmagan bo'lamiz. Axborotlashtirish falsafiy ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish uchun maktabda olingan bilimlar bilan tashqaridagi odamlar orasida aylanib yurgan fikr, tartibga soluvchi me'yorlar, amal qiluvchi qadriyatlar bilan bir xillikka erishish, ya'ni muvofiqlashtirish muammosini keltirib chiqardi.

3. *Funksional savodsizlikning paydo bo'lishi va kengayib borishi, ya'ni xodim yoki fuqaroning olgan ma'lumotiga qaramay o'z kasbiy yoki ijtimoiy funksiyalarini samarali bajara olmasligi bilan izohlash mumkin.* Funksional savodsizlik falsafiy va diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya sifatini oshirish muammosini yanada keskinlashtiradi va uni hal qilishni murakkablashtiradi.

Yoshlarga falsafiy ta'lim-tarbiya berish, diniy-ma'rifat bilan oshna qilishdan maqsad esa ularning globallashuv sharoitida koinot, tabiat va jamiyatda yuz berayotgan barcha narsa, hodisa va jarayonlarning kelib chiqish sabab va oqibatlari, voqelikka aylanish imkoniyatlari, shakl va mazmunlari, hodisaviy mohiyatlari haqida ilmiy-amaliy jihatdan kreativ tafakkur qilishga asoslangan dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirgan holda yangicha tipdagi dunyoqarashini shakllantirishdan iborat.

Dissertatsiyada dunyoviy va diniy fanlarning differensialashib va integrallashib borish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dunyoqarashni ikki katta guruhga, ya'ni dunyoviy va diniy dunyoqarashlarga ajratib o'rganish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Yangilanayotgan O'zbekistonni barpo etish ham ko'p jihatdan mamlakat aholisining dunyoviy va diniy dunyoqarashini tubdan o'zgartirishga bog'liq. Buning uchun yangicha milliy mazmunga, umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan dunyoviy va diniy qarashlarni uyg'unlashtirish asosida yangicha dunyoqarashni yuzaga keltirish zarur bo'ladi. Shunga ko'ra:

*Dunyoviy dunyoqarash* – bu kishilarning kundalik hayotida tabiiy va ijtimoiy borliqda sodir bo'layotgan narsa, hodisa va jarayonlar haqida egallagan tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy bilimlari asosida hosil qilingan tafakkur qilish tarzidir. U, *birinchidan*, olam bir butun (yaxlit), ya'ni olamda nimaiki mavjud bo'lmasin, ular bir-biri bilan bevosita yoxud bilvosita bog'liqdir, olam tabiat, jamiyat va odam birlikda bir butunlikni tashkil qiladi; *ikkinchidan*, borliq, mavjudlik va reallikni tushunish hamma vaqt insonning tafakkur qilish darajasi bilan bog'liqdir; *uchinchidan*, yalpi umumiy bo'lmagan xossa, zarurat, aloqadorlik va hakozolar to'g'risida fikr yuritish kabi xususiyatlarga ega bo'lib, ular odamning o'z-o'zini bilib olishning asosiy va betakror uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

*Diniy dunyoqarash* - bu borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudodga, ya'ni Xudoga nisbatan bo'lgan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar tizimidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda dunyoviy va diniy ilmlar asnosida "dunyoviy dunyoqarash" va "diniy dunyoqarash" tushunchalarini, nisbatiy jihatdan qiyoslab tushunish va tushuntirish ma'nosida iste'molga kirib kelgan. Dunyoqarashni ana shu shaklda tushuntirish – bu falsafiy dunyoqarashni yanada teran anglatishni tashkillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertant dunyoviy va diniy dunyoqarashlarni xarakteriga ko'ra gumanistik va jaholatparast (reaksion) turkumlarga bo'lgan. Dunyoviy va diniy dunyoqarashi gumanistik xarakterga ega bo'lgan odamlar hayotining asosiy maqsadini o'z xalqi va umuminsoniyatning ozodligi va farovonligi uchun olib boriladigan kurash bilan bog'laydilar. Dunyoviy va diniy dunyoqarashi jaholatparast xarakterga ega bo'lgan odamlar ayrim millat, sinf va boshqa ijtimoiy birliklar manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat kechirsalarda ular boshqa millatlarga nisbatan genotsid o'tkazadilar. Jamiyatda zo'ravonlik, zulm va boshqa antidemokratik tartiblar o'rnatadilar, odamlarning haq-huquqlari poymol bo'lishiga yo'l qo'yadilar va hakovolar.

Tadqiqotda yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning konseptual jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotchi *uyg'unlik – bu tabiat va jamiyat ichki va tashqi aloqadorligining muayyan vaqt davomidagi mutanosibligini anglatuvchi falsafiy tushunchadir. Uyg'unlashtirish esa bu subyektlarning tabiat va jamiyat ichki va tashqi aloqadorliklarini obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida muayyan vaqt davomida o'zgarib borish jarayonini bir birlariga monand, mos, mutanosib, hamohang tarzda tartibga solish, kelishtirish orqali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan xatti-harakatlar tizimidir, degan ta'rifni beradi.*

Yangi O'zbekiston orzusini amalga oshirishning asosiy jihatlaridan biri – "odam-olam" munosabatlari kontekstida dunyoviy va diniy dunyoqarashlarni uyg'unlashtirishning ontologik, gnoseologik, aksiologik va prakseologik jihatlari bo'yicha strategik ahamiyatga ega konseptual asoslarini yaratish masalasi yuzaga keladi. Jumladan:

*Birinchi konseptual jihat* – yoshlarning dunyoviy dunyoqarashlarini insonning jismonan tabiat farzandi ekanligini unutmagan holda tabiat olami bilan uyg'unlashtirish zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

*Ikkinchi konseptual jihat* – bu yoshlarning diniy dunyoqarashlarini Alloh tomonidan insonning birinchi navbatda tabiat quchog'ida yaratib, uning tabiat olamidagi narsalar bilan uyg'unlashgan holda yashashi zaruriyatini uqtirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

*Uchinchi konseptual jihat* – bu yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning umumiy nuqtalarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ular tabiat in'omlaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish orqali amalga oshadi.

*To'rtinchi konseptual jihat* – bu yoshlarning "Yashil iqtisodiyot" bilan "Raqqamli iqtisodiyot"ni uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib borishlariga qaratilgan

iqtisodiy innovatsion kreativ tafakkur asosiga qurilgan iqtisodiy ongi va madaniyatini shakllantirishni o'z ishiga oladi.

*Beshinchi konseptual jihat* - moddiy va ma'naviy boyliklarni adolatli taqsimlash borasida odamlarning dunyoqarashiga asoslangan o'lchovlari ham bisyor bo'lib, ularni amalga oshirishning ma'naviy mezonlaridan birini diniy-ma'naviy odob-axloq normalariga asoslangan diniy-ma'rifiy konsepsiyada ilgari surilgan g'oyalar asosida yondashish yoshlarning diniy va dunyoviy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos bo'lgan 1) insonning jismini tabiat olami; 2) insonning ma'naviy vujudini tabiat va atrof-muhit; 3) dunyoviy va diniy dunyoqarashlarni uyg'unlashtiruvchi nuqtalarini topish; 4) iqtisodiyot va ma'naviyatni uyg'unlashtirishning konseptual jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning moddiy tomonini dunyoviy ilmlar tashkil qilsa, uning ruhiy ma'naviy-axloqiy tomonini diniy bilimlarga asoslangan qadriyatlar tashkil etadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirish orqali mamlakatimizni rivojlanishning Uchinchi Renessans bosqichiga olib chiqishdan iboratdir. Yoshlar shunchaki ijtimoiy qatlam emas, balki u bir qancha omillar ta'sirida o'zgarib boruvchi, qolaversa, jamiyatning kelgusidagi shakl-shamoyillarini belgilab beruvchi dinamik xarakterga ega bo'lgan qatlamdir. Islom dini yoshlarga axloqiy-ma'naviy jihatdan yo'l-yo'riq ko'rsatish bilan birga globallashib borayotgan dunyoda jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining barcha sohalarida ishtirok etishga, ya'ni ilm olishga, sevib-sevilib o'z juftini erkin tanlashiga, har xil dunyoviy xarakterga ega bo'lgan tantana va marosimlarda ijtimoiy qatnashishlariga ruxsat beradi. Demak, islom dinining sintezlashuv xarakteri yoshlarga ikki, ya'ni dunyoviy va diniy tomonning foydali tomonlarini qabul qilish jamiyat hayoti talablarini to'g'ri bajarish imkonini beradi. Yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashni uyg'unlashtirishda ularning e'tiborini faqat bir tomonlama, ya'ni faqat din yoki faqat ilmga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, bu esa ularni hayotda o'z yo'lini topolmasdan erkin yashashlaridan mahrum qiladi. Chunki ikki dunyoqarashning muvozanatini saqlash, yoshlarning ruhiyati va g'oyaviy e'tiqodining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Dissertasiyaning ikkinch bobi **“Falsafiy tarbiya – yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishning konseptual-metodologik asosi”** deb nomlanib, ushbu bobda falsafiy tarbiyaga oid yondashuvlar va konsepsiyalar, uning yoshlar dunyoqarashini shakllantirish va jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni hamda yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Falsafiy tarbiya shunchaki tarbiya turlaridan biri emas, balki insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni vorisiylik asosida o'zlashtirish, ularning mohiyatini anglash jarayonidir. U boshqa barcha tarbiya

shakllari (axloqiy, huquqiy, estetik va h.k.) uchun metodologik poydevor vazifasini o'taydi.

Dissertatsiyada falsafiy tarbiyaning hozirgi kunda quyidagi modellari asoslab berilgan:

*Birinchi model:* Falsafiy tarbiya – bu turli xil falsafiy yoki falsafiy- ruhiyatga oid g'oyalarini tarbiya amaliyotida qo'llaydigan bilim sohasi<sup>6</sup>. Bu modelning asoschisi va tarafdorlari R.Berrou, B.Shugerman, V.Key hisoblanadi.

*Ikkinchi model:* Falsafiy tarbiya – bu lingvistik tahlil orqali odamlarning axloqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu modelning tarafdorlari A.Brent, A.Xarris, P.Xyorst hisoblanadi.

*Uchinchi model:* Falsafiy tarbiya – bu madaniy qadriyatlarni bir davrdan ikkinchi davrga yetkazib berish usulidir. Bu model tarafdorlari T.Bafford, K.Strayk, K.Egan va boshqalar hisoblanadi.

Insonga falsafiy tarbiya berishni tashkillashtirish bo'yicha integral, sinergetik, fenomenologik, dialektik-refleksiv, matnli yondashuvlar, shuningdek, shaxsiy barcha qatlamlar va tuzilmalar tarkibida faoliyat yurituvchi insonning erkin odam ekanligini belgilab beruvchi tayanch nuqtalaridan biri; sotsiologik – eng kam xarajatlar bilan insonni mavjud ijtimoiy munosabatlar olamiga olib chiqish va jismoniy-tabiiy shaxsdan aniq tarixiy shaxsni yaratishga sazovor bo'lish<sup>7</sup>; semiotik-ikkita semantik tekislik: qiymat va ma'no kesishgan joydagi ko'p vektorli tarbiya maydoni; evristik – ijodkorlik, san'at, ta'lim singari texnologiya, aniqrog'i, epistemologik texnologiyalarni ifodalovchi konsepsiyalar mavjud.

Mamlakatimizdagi real voqelikdan kelib chiqqan holda “falsafiy tarbiya” tushunchasiga tadqiqotchi quyidagicha ta'rif berish mumkin deb hisoblaydi: *Falsafiy tarbiya – bu insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boylklarni vorisiylik asosida muayyan vaqt oralig'ida o'zlashtirib, ularning mazmuni va mohiyati, kelgusidagi jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida diniy va dunyoviy dunyoqarashlarni uyg'unlashtirgan holda jismonan sog'lom, ma'nan barkamol bo'lgan shaxs hamda turli xil jamoalarni shakllantirish va takomillashtirish jarayondir. Uning boshqa tarbiya shakllarida farqi – metodologik ahamiyat kasb etishidir.* Demak, falsafiy tarbiya bu – madaniyatning qadriyatli va vaziyatli turini takror ishlab chiqarish mexanizmi; insonning ma'naviy va mistik muhim kuchlarini qayta ishlab chiqarish qurilmasi; insoniyatning barcha qatlamlari va darajalarini o'zgartiradigan omil; an'ana va innovatsiyani o'zida mujassam etgan jonli, ochiq tizim; aniq tarixiy xususiyatga ega bo'lgan reallik; kelajakni hozirgi kunga ko'rsatish; tizim va ma'naviy universumdur. Bu ta'riflarning barchasi falsafiy tarbiyaning murakkab tizim ekanligini, ayni vaqtda ta'lim va tarbiya jarayonini tadqiq qiluvchilar uchun metodologik asos vazifasini o'tashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada falsafiy tarbiya qonunlari jamiyat hayotida mavjud bo'lgan tarbiya jarayonlarining muhim, zaruriy, umumiy, nisbatan barqaror takrorlanib turadigan aloqalarini, rivojlanish xususiyati va yo'nalishlarini belgilaydigan, aniq

<sup>6</sup> Bufford Th. Toward Philosophy of Education. -N.Y.,1969. P.1.

<sup>7</sup> Бакштановский В.И. Этика и этос воспитания: научно-публицистическая монография. – Тюмень:НИИ прикладной этики, 2018. – С.23. (256 с.)

bir natijalarni keltirib chiqarishga moyillik tugʻdiradigan bogʻlanishlar va munosabatlar majmui ekanligi aytiladi va bularga quyidagilar kiritilgan:

1. Falsafiy tarbiyaning jamiyat manfaatlariga mos kelishi, manfaatning tarbiya yoʻnalishlarini belgilashi qonuni.

2. Falsafiy tarbiyaning ijtimoiy buyurtmaga muvofiqligi, ijtimoiy buyurtmaning tarbiyaga boʻlgan ehtiyojni kuchaytirib borishi qonuni.

3. Falsafiy taʼlim va tarbiyaning dialektik birligi, taʼlimning tarbiya jarayonini ilmiylashtirishi, tarbiyaning taʼlimni insoniylashtirib borishi qonuni<sup>8</sup>.

4. Falsafiy tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchining uzviy aloqadorligi, bunda tarbiyachining tarbiyalanuvchilar faoliyatini modellashtirishi qonuni.

Bular tarbiyaning davlat va jamiyat tomonidan yuritayotgan gʻoyaviy-mafkuraviy siyosatiga, tarbiyaning fan va texnika taraqqiyotiga, mutaxassisga qoʻyilayotgan talablarigamos kelishi zarur. Shuningdek, tarbiyaning tarbiyachi va tarbiyalanuvchi oʻrtasida oʻrnatilgan axloqiy-maʼnaviy, ruhiy munosabatlariga, tarbiyaning tarbiya beruvchi ustozning bilimi, kasbiy mahorati, qiziqishi va manfaatlariga bogʻliqligi kabilar kiradi. Shuni unutmaslik kerakki, bu bilan falsafiy tarbiya qonun va qonuniyatlari tugamaydi.

Tadqiqotchi fikricha, falsafiy tarbiya jarayonini takomillashtirib borishga qaratilgan konsepsiyalar ham mavjud boʻlib, ular:

1. *Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻunlashtirishga qaratilgan falsafiy taʼlim jarayonining “assotsiativ-reflektor” konsepsiyasi.* Mazkur konsepsiya taʼlim-tarbiya jarayoni davomida yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻunlashtirishda bilim olishini mantiqan: har bir yoshning atrofida narsa, hodisa va jarayonlarni bilishga oid vazifalarni anglashi va kun tartibiga qoʻya bilishi; oʻquv materialini toʻligʻicha idrok etishi; oʻrgatilayotgan oʻquv materialining mazmun-mohiyatini tushunib yetishi va yodda saqlab qolishi; olingan bilimlarni amalda qoʻllay olishi bilan ifodalanadi.

2. *Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻunlashtirishga qaratilgan falsafiy taʼlimning “yoshlar aqliy qobiliyat va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirib boorish” konsepsiyasi.* Ushbu konsepsiya bilimlarni oʻzlashtirish, koʻnikma va malakalarni shakllantirish bosqichma-bosqich yuz beradi, tashqi “moddiy” faoliyatning ichki jihatdan aqliy moʻljal olishga oʻtishini taʼminlash reja orqali sodir boʻladi, degan qoidani ilgari suradi. Unga muvofiq tashqi faoliyatni tashkillashtirish ishlari, ayni vaqtda ichki tomondan bilimlarni oʻzlashtirishga, koʻnikma va malakalarni egallash va taʼlim jarayonini ratsional boshqarish va unga mos ravishda insonning shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga asos boʻladi.

3. *Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uygʻunlashtirishga qaratilgan falsafiy taʼlim-tarbiya jaryonida alohidalik xususiyatiga ega boʻlgan “rivojlanib boruvchi falsafiy taʼlim” konsepsiyasi* boʻlib, taʼlim-tarbiya jarayonida yosh taʼlim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, qiyin sharoitlarda muvaffaqiyat

---

<sup>8</sup> Юлдашев Р.Д. Таълим фалсафаси – таълим жараёнини ривожлантиришнинг назарий-методологик асоси. Монография. – Т.: TAMADDUN, 2020. – Б.40.

qozonish yo‘llarini izlab topishga, hayotda vujudga kelgan muammoli vaziyatni tahlil qilib, undan chiqib ketish yo‘llarini izlab topishga, ilmiy bilishning analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirishga, ikkinchi darajali ishlar bilan chalg‘imasdan birinchi darajali narsa, voqealarning ichki mohiyatiga kirib borishga, shu tariqa obyektiv xulosalar chiqarishni o‘rgatish, o‘qitish ishlarini amalga oshirishda keng qo‘llaniladi.

4. *Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirish, rivojlantirishga qaratilgan falsafiy ta’lim-tarbiya konsepsiyalaridan yana birini “innovatsion ta’lim” tashkil etadi.* Innovatsion ta’lim – bu yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un rivojlantirish uchun, ularga ta’lim-tarbiya berish va olishda tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish borasida eng yangi g‘oyalarning fan va texnika yutuqlarida mujassamlashtirilgan, ilg‘or texnika va texnologiya sifatida o‘zini namoyon qilgan, o‘qitish va o‘rgatishda yangi sifatli o‘zgartirishni keltirib chiqaradigan vositalardan foydalanish orqali muayyan natijalarga erishishini ta’minlaydigan uzluksiz kechadigan jarayonlardan tashkil topgan bir yaxlit tizimdir.

Tadqiqotda jahonda yuzaga kelgan global xavf-xatarning oldini olish uchun dunyoqarashi har tomonlama uyg‘un rivojlangan yoshlarning jamiyatda barqarorlikni har tomonlama ta’minlovchi kuch ekanligi tahlil qilingan. Barqaror rivojlanish – bu tabiat in’omlariga zarar yetkazmasdan, ilm-fan yutuqlari asosida moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishda tejamkorlik bilan unumli foydalanish, ma’naviy ne’matlarni yaratishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar prinsiplariga mos ravishda insoniyatning porloq kelajagini ko‘zlab jamiyatni har tomonlama ravnaq toptirishga qaratilgan nisbatan tinch, bir tekis faoliyat ko‘rsatish tizimidir. Kishilik jamiyatining barqaror tarzda rivojlanib borishi, ko‘pincha yoshlarning dunyoqarashini o‘zgartirishga qaratilgan falsafiy tarbiya tizimiga bog‘liq bo‘lib, uning mohiyati esa vorisilik asosida insoniyat olamining abadiyligini ta’minlashga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy vaqt – bu shunchaki soat yoki yil emas, balki inson faoliyati, voqealar ketma-ketligi va jamiyat hayotidagi holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan substratdir. Yoshlar tarbiyasida vaqtning turli ko‘rinishlari: doimiy (qarindoshlik vaqti), aldanchi (kundalik tartib), adashgan (inqirozlar vaqti), siklik, kechiktirilgan, o‘zgaruvchan, oldinga intilish va portlovchi vaqt (inqilobiy o‘zgarishlar) kabi shakllari ta’lim-tarbiya amaliyotiga ta’sir ko‘rsatadi. Falsafiy tarbiyaning vazifasi – yoshlarni “aldanchi vaqt” sehriga berilmasdan, vaqtdan intellektual-ma’naviy o‘sish uchun foydalanishga o‘rgatishdir.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, falsafiy tarbiya – bu bir tomondan barcha tarbiya turlarining nazariy-metodologik asoslarini; ikkinchi tomondan esa ularni amaliyotda qo‘llashning funksiyalarini belgilab beruvchi tarbiya shakllari jumlasiga kiradi. Tarbiya jarayoni har bir elat, millat va xalqlarning umuminsoniy va milliy qadriyatga bo‘lgan ehtiyojlariga qarab o‘zgara boradi. Bunda falsafiy tarbiya ularning yo‘lini yorituvchi “mayoq” vazifasini o‘taydi. Falsafiy tarbiyaga xos bo‘lgan ontologik, gnoseologik, aksiologik va metodologik xususiyatlar yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi, ma’naviy qadriyatlari hamda hayotiy pozitsiyasini

shakllantirish orqali jamiyatda barqarorlik, hamjihatlik va taraqqiyotni ta'minlashga yordam beradi. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini shakllantirish va rivojlantirish shunchaki tarzda emas, balki ma'lum ijtimoiy vaqt oralig'ida olib boriladigan falsafiy tarbiyaning hosilalaridan biri sanaladi. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirishda ijtimoiy vaqt talablarini hisobga olishning falsafiy ahamiyati yangilanayotgan jamiyatimizning moddiy va ma'naviy hayotini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan islohotlarda faol ishtirok etayotgan yoshlarning "vaqt byudjeti"dan samarali foydalanishini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishdagi ahamiyati**" deb nomlangan bo'lib, unda diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya tushunchasi, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan hamda yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan.

Din odamlarning qandaydir kutilmagan g'ayri-tabiiy mo'jizalarning sir-asrorlarini bilmasligi yoki bilib hayratlanishi tufayli hosil bo'lgan ma'naviy fenomendir. U kishilar, elat, millat va xalqlarning e'tiqodlariga, dunyoqarashlariga qarab bir nechta jamoa, guruh va oqimlarga bo'linib ketgan.

Dissertant fikricha, diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya – bu diniy, guruh, jamoa, tashkilotlarning yetakchilari tomonidan har bir individ, shaxs, kishi, odamlarga Allohning mavjudligini, uning mo'jizaviy kuchga ega ekanligini anglatish, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga boy bo'lgan diniy urf-odatlariga qat'iy amal qilgan holda ruhiy kamolotga erishishi orqali "ikki dunyo" hayoti saodatiga erishish uchun to'g'ri yo'ldan borishni o'rgatishga qaratilgan faoliyatidir. Diniy-ma'rifiy tarbiyadan maqsad – bu kishilarga nafaqat Yaratganning va payg'ambarlar hamda din peshvolarining ta'limotini o'rgatishni, balki ayni vaqtda ularning jamiyatda tutgan o'rnini, fuqarolik burchi va mas'uliyatini ham to'g'ri anglab yetish zarurligini ko'rsatish bilan ham ifodalanadi. Aslini olganda diniy-ma'rifiy tarbiyaning markazida "ikki dunyo"ning borligini, unda insonning o'limidan keyingi ikkinchi dunyoga borishda diniy aqida, marosim, urf-odatlarning rolini sakrallashtirish fenomeni yotadi. Demak, bunda atrofdagi voqelikda yuz berayotgan hodisalarni, unda insonning paydo bo'lishi va umrguzaronlik qilishlarini muqaddas mazmun bilan ta'minlashga, xususan diniy urf-odatlarni, marosimlarni ularni muqaddaslashtirish masalasiga alohida ma'no berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrofdagi voqelikda yuz berayotgan hodisalarni, unda insonning paydo bo'lishi va umrguzaronlik qilishlarini muqaddas mazmun bilan ta'minlashga, xususan diniy urf-odatlarni, marosimlarni ularni muqaddaslashtirish masalasiga alohida ma'no berish muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy-ma'rifiy tarbiyani ikki: aqliy (ratsional) va ilohiy (mistik) darajalarga ajratish mumkin. Diniy-ma'rifiy tarbiyaning *aqliy (ratsional)* darajasi axborot olish va uni uzatish, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar qoidalarga qat'iy amal qilish, voqelikdagi o'zgarishlarga qarab faol harakat qilishini ta'minlashni yo'lga qo'yish komponentlaridan tashkil topadi. Xuddi shu jarayonda ikki holat *birinchidan*, dunyoviy bilimlarga asoslangan dunyoqarashning o'rnini aql orqali idrok qilish, uni dinga qarama-qarshi qo'yimaslik; *ikkinchidan*, diniy

bag'rikenglikni kengaytirib konfessiyaviylikka keng yo'l oshib berish maqsadga muvofiq.

Diniy-ma'rifiy tarbiyaning mistik (ilohiy) darajasida tarbiya jarayonida dindorlarning ilohiyot olami bilan aloqa qila olishiga ishonchdan iborat diniy e'tiqodni shakllantirish va rivojlantirish uchun turli marosimlarga tayyorgarlik ko'rish va qatnashish, ibodat qilish, muqaddas narsalarni hurmat qilish va e'zozlab avaylash tuyg'usini rivojlantirishni o'z ishiga oladi.

Tadqiqotda diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning ahamiyati quyidagicha asoslab berilgan:

1. Diniy e'tiqodlarning kishilar amal qilishi kerak bo'lgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini belgilab beradi, bunda har bir so'zni o'ylab gapirish, shunga muvofiq tarzda o'zini tutishni talab qiladi.

2. Zamonaviy jamiyatning bir qismi bo'lgan turli dinlar va e'tiqodlar haqidagi bilimlarning rivojlanib borish tendensiyalarini bilish uchun muhim ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

3. Xudo haqidagi, insonning o'zi va mavjud voqelikning tabiati haqidagi g'oyalar, unda nima yaxshi-yu, nima yomon, inson bo'lish nimani anglatishi haqidagi savollarga javob topish imkoniyatini beradi.

4. Yoshlarda islomiylik, nasroniylik kabi asosiy dinlar, boshqa diniy an'analar va hayotning turli savollariga javob beradigan dunyoviy va diniy dunyoqarashni tushuntirib berish bo'yicha bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Jamiyatda o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlash orqali yoshlar shaxsining rivojlanishiga, kelajakda ijtimoiy hamjihatlikning yanada barqaror tus olishiga yordam beradi.

6. Yoshlarning o'z-o'zini, o'z xatti-harakatlarini, turmush tarzidagi ma'naviy muhitni yaxshilashda dinning ahamiyati borligini chuqur anglash imkonini beradi.

7. Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturi doirasida diniy e'tiqodlarni o'rganishning ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga erishishda muhim ahamiyat kasb etishini har tomonlama asoslab beradi.

8. Diniy tushunchalarining zamonaviy jamiyatning axloqiy-ma'naviy va madaniy hayotidagi rolini o'rganish orqali odamlarda axloqiy ong va falsafiy tushunchalarni rivojlantirishiga olib keladi.

9. Yoshlarni katta sershovqin hayotiga tayyorlash, ularning bandligi va umrbod ta'lim-tarbiya olishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bolalar va yoshlarga o'ziga ishongan shaxslar va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

10. O'quvchi, talaba yoshlar o'rtasida ahillikni rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi.

Tadqiqotda dinning mavjud reallikda kechayotgan tabiat mo'jizalari, shuningdek jamiyatning axloqiy-ma'naviy hayotida yuz berayotgan jarayonlar haqidagi qarashlarining yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarining falsafiy jihatlari tahlil etilgan. Har qanday ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonini tashkil etishning mavjud real voqelik talablaridan kelib chiquvchi ilmiy-amaliy ahamiyatga molik konseptual xarakterga ega bo'lgan komponentlari mavjud bo'ladi. Bunday asosga ega

bo‘lmagan ta’lim-tarbiya ishlari esa o‘z navbatida qisqa maqsadlarni ko‘zlagan holda dialektik inkorning uzluksizlik tamoyiliga amal qilmagan bir xilqat sifatida harakatlana boshlaydi. Demak, bularsiz ta’lim – tarbiyadan ko‘zlangan maqsad to‘lig‘icha amalga oshmay qoladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda komponent ta’lim-tarbiya jarayonini izchillik bilan amalga oshirish mexanizmining bir “murovat”i hisoblanadi. Yoshlarga diniy-ma’rifiy ta’lim-tarbiya orqali, ularning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan o‘ziga xos konseptual asosga ega bo‘lgan komponentlari ham mavjuddir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi.

1. *Yoshlarda diniy e’tiqod (aqida) larga nisbatan mustaqil fikr yuritishni shakllantirishning tushunish va tushuntirish komponenti.* Yoshlarning mustaqil fikr yuritishi – bu har bir yoshning olamning yaratilishi, unda sodir bo‘layotgan tabiat hodisalari, jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlar, fan va din o‘rtasidagi munosabatlar, odob-axloqqa asoslangan qadriyatlarining kundalik turmushdagi o‘rni haqidagi qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan tafakkur yuritish tizimidir. Diniy e’tiqod (aqida) - odamlarning biron bir din tomonidan qandaydir ilohiy kuchlarga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvur, gap, tushuncha, urf-odat va marosimlarga qat’iy tarzda ishonch hosil qilgan holda qilinadigan xatti-harakatlari tizimidir. Buni ikki xilda tushunish va tushuntirish mumkin. *Birinchi*, diniy ma’naviy-ma’rifiy jihatdan diniy e’tiqod (aqida) qotib qolgan narsa, hodisa va jarayon emas, balki jamiyatda tinchlikni saqlash va uning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan axloqiy-ma’naviy manba. *Ikkinchi*, dindorlarning haqiqatga zid, ko‘r-ko‘rona qabul qilingan diniy fikr, qoidalarga asoslangan holda xalqni mutloq diniy qullikka asoslangan jamiyatni qurishga qaratilgan maqsad-muddaolarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlaridir. Bularni diniy aqidalarga ko‘r-ko‘rona ishonuvchi, aqidalarga yopishib olgan shaxslar-aqidaparastlar deb ataydilar.

2. *Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirishda diniy axloqiy-ma’naviy ta’lim-tarbiya komponenti* yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Din tarixidan shu narsa ma’lumki, axloqiy-ma’naviy-ma’rifiy ta’lim-tarbiya har qanday ko‘rinishdagi dinning asosiy komponentlaridan biri sanaladi. Diniy va dunyoviy nuqtayi nazardan olib qaraganda hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi. Bu esa jamoada qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun-qoidalarga amal qilib yashashni talab etadi. Bu qoidalar islom dinining “Hadis” kitoblarida o‘zining aksini topgandir.

3. *Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirishda buyuk yaratuvchi bo‘lgan Allohni anglash uchun tabiat mo‘jizalarini o‘rganish komponenti.* Bugungi kunda ilmiylikka daxldor bo‘lgan mo‘jizalarning ko‘pi birinchilardan bo‘lib islom olamining olimlari tomonidan o‘rganilib chiqilishi natijasida dunyoni o‘zgartirib yuboruvchi kashfiyotlar amalga oshirganligi hech kimga sir emas.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, din bir tomondan progressiv ahamiyatga ega bo‘lgan butun boshli xalqlarni birlashishiga, tinch-totuv yashashlariga imkoniyat

yaratib beruvchi obyektiv axloqiy-ma'naviy kuch vazifasini o'tagan bo'lsa; ikkinchi tomondan uni o'ta agressiv kuch sifatida o'zga dinlarga e'tiqod qiluvchi butun boshli xalqlarni qirib yuborishga sababchi bo'lgan vayronkor mafkura sifatida ishlatishgan. Yoshlarning diniy va dunyoviy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirishni birgina kattadan katta masjidlar qurish, diniy liboslarni kiyish, "soqol" qo'yish kabilarni bajarish orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun esa yoshlarga diniy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar, din peshvolari tomonidan uzluksiz tarzda diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish talab etiladi. Diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya olishdan bahramand bo'lgan har bir yosh aqidaparastlik, radikalizm, ekstremizm kabi oqimlarga qo'shilib "jihod"chilar saflarini to'ldiravermaydi. Islom dini hech qachon dunyoviy fanlarni o'rganishga qarshi bo'lmagan va hamma vaqt ularning sirlarini bilish orqali Allohning mo'jizakor kuchga ega ekanligi isbotlashga harakat qilganlar. "Quroni Karim" kitobida tabiat olamida yuz beradigan va berishi mumkin bo'lgan mo'jizalarni o'rganish din va ilm-fan o'rtasida ziddiyat, qarama-qarshilik emas, balki uyg'unlik borligini anglatib turadi. "Quroni Karim" kitobida tabiatda sodir bo'ladigan mo'jizalarni amalda sodir bo'layotgan hodisalar bilan aynan ekanligi yoshlarda hayajon, tafakkur, shukronalik va tavozelik hislarini, ya'ni axloqiy-ma'naviy fazilatlarining o'sib borishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotning **"Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari"** deb nomlangan to'rtinchi bobida yoshlar dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari, metodlari va ularni qo'llash shartlari hamda "Yangi O'zbekistonda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqish zaruriyati asoslab berilgan.

Mamlakatning tinch, barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy kuch yoshlar hisoblanadi. Yoshlarning ongida kelajak haqidagi o'y-fikrlar o'ziga xos bir tarzda, ya'ni jo'shqin o'zgaruvchan (dinamik) shaklda aks etgan bo'ladi. Uni qadriyatli turg'un (statik) e'tiqod shakliga keltirish uchun bir qator umumiy hamda maxsus falsafiy, diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya tamoyillarini ishlab chiqish va ularni amalda qo'llashni taqozo etadi. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishda falsafiy, diniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning tamoyillari odatda – ta'lim-tarbiyaviy ishning usullari, mazmun va shakllariga qo'yiladigan talablarning mohiyatini ifodalovchi, ilg'or ijtimoiy ideallar, axloqiy-ma'naviy me'yorlar, kasb-hunar faoliyatning maqsad va vazifalarini bajarish ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladigan asosiy, boshlang'ich, qoidalar hisoblanadi va yoshlar tarbiyasining ma'lum qonuniyatlariga asoslanadi, o'qituvchi-murrabiylarning ish faoliyatini bir xil ma'romda, uzluksiz tarzda olib borishni tashkil qiladi, ularni me'yorlashtirgan holda muayyan bir oqim sari yo'naltirib turadi. Ularni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

*Birinchi guruhga*, yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmundorligini tanlash bo'yicha: insonparvarlik va ilmiylik; professionallik;

ta'lim va tarbiyaning birligi; ta'lim-tarbiyaning jamiyat hayoti bilan bog'liqligi; vorisiylik kabi tamoyillarini kiritish mumkin.

*Ikkinchi guruhga* esa yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirish va rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining metodikasini tashkiliy-uslubiy jihatdan standartlashtirishga qaratilgan: yoshlar bilan ularning jamoalari va boshqa mustaqil birlashmalarga tayanib ish olib borish; ta'lim - tarbiyaga yakka tartibda yondashish; ta'lim - tarbiyada oshkoralik va demokratiya; ta'lim-tarbiyada keng qamrovlilik; tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning birligi; ta'lim-tarbiyada birlik va o'zaro hamjihatlik; ta'lim-tarbiyada istiqbolni ko'zlash; onglilik, mas'uliyat va ijtimoiy faolligini hisobga olish; yuksak talabchanlik va qadr-qimmatini hurmat qilish; samarali mehnat qilishga va o'zgalarga tezkor xizmat ko'rsatish kabi tamoyillarni kiritish mumkin.

Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini shakllantirishda kompleks yondashuvni amalga oshirish ishlarini ta'lim-tarbiya jarayonida bevosita yoki bilvosita qatnashuvchi barcha ishtirokchilarining kasbiy axloqiy-ma'naviy madaniyatini oshirmasdan turib tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun kompleks yondashuv yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchilardan o'z ustida doimiy ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirish borishni talab qiladi. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini shakllantirishda kompleks yondashuv tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni: ta'lim-tarbiya muassasasi, shuningdek har bir ta'lim-tarbiya beruvchi va oluvchi yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirishda o'zlarining oldida turgan ta'lim-tarbiyaning umumiy va maxsus ko'zlangan maqsadlarini bilish; belgilangan maqsadlarga erishishda o'z vazifalarini aniqlay olish; yoshlar faoliyatining barcha turlarini (o'qish, mehnat, jamoat ishlari, sport, dam olish, kundalik turmush) yetakchi maqsad – ularning dunyoqarashlarini har tomonlama shakllantirishga jalb qilish; ta'lim-tarbiyaning barcha turlarini, ya'ni g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy-ma'naviy, mehnat, estetik, ekologik, huquqiy, siyosiy va boshqa shakllarini o'zaro bog'lash orqali, ularni yoshlarning dunyoqarashini kompleks shakllantirish va rivojlantirish ishlariga bo'ysundirish; yoshlarning shaxsiga ta'sir qilish vositalarini diversifikatsiya qilish (o'zini o'zi boshqarish, ijodkorlik, o'yin, mas'uliyat, so'z va ishning uyg'unligi, shaxsning hissiy va irodaviy sohasiga ta'sir qilish); yoshlarni o'z-o'zini tarbiyalashga undash; yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir etuvchi tarbiya, tarbiyaning barcha omillarini aniqlash, tahlil qilish va hisobga olish, ijobiy ta'sir ko'rsatadiganlarini faollashtirish va salbiy omillarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish kabilarni bajarish talab etiladi.

Tadqiqotda yoshlarga falsafiy tarbiya berish orqali, yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirishda qo'llaniladigan falsafiy tarbiya metodlari va ularni amalda qo'llash shart-sharoitlari tadqiq qilingan. Bu metodlar quyidagicha tasniflagan va ularni qo'llash shart-sharoitlari ko'rsatib o'tilgan:

1. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirish uchun shaxs ongi, qarashlari, e'tiqodlari, dunyoqarashlarini o'stirishga qaratilgan *ishontirish, namuna ko'rsatish* kabi metodlar kiradi. Masalan, yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un shakllantirishda qo'llaniladigan ishontirish usulini

muvaffaqiyatli qo‘llash shartlari: yoshlar nazdida ta’lim-tarbiya beruvchi shaxsiy obro‘sining borligi yoki yo‘qligi; yoshlarning psixologiyasini, ularning dunyoqarash tizimi, qarashlari va e’tiqodlarini bilish zarurati; yoshlar va murabbiylar o‘rtasida o‘zaro ishonch muhiti, psixologik aloqa, sheriklarning bir-birini “eshitish” istagining borligi yoki yo‘qligi; yosh suhbatdoshning ayni damdagi emotsional, ya’ni asabiylik, xafagarchilik, jizzakilik, achchiqlanish, g‘azablanish, qayg‘uga tushish kabi holatlarini hisobga olish; yoshlarning yoshi, oilaviy ahvoli, madaniy darajasiga bo‘lgan e’tiborni nazardan qochirmaslik; yoshlar bilan ishlashda mutlaq samimiylik, haqiqat, fakt va dalillarning ishonchligiga tayanib faoliyat yuritish kabilardan iborat. *Ishontirish metodini* qo‘llashda yolg‘on dunyoqarashlarga ishonish, har xil nayranglar bilan jamoada soxta obro‘ orttirish; yaqinlarni namuna qilib ko‘rsatish asosida o‘zidan “xudo” yasash; dinning asl mohiyatini tushunmasdan dindorlar ongini jo‘nbushga keltirish kabi salbiy holatlarning qanday oqibatlarga olib kelishidan yoshlarni ogohlantirish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Haqli ravishda shuni aytish mumkinki, yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘un shakllantirish uchun qo‘llaniladigan ishontirish metodi shaklan sodda bo‘lishiga qaramay, juda murakkab mazmunga ega bo‘lgan, belgilangan maqsadlar, qo‘yilgan shartlar bajarilgandagina, yoshlarga dunyoqarash masalasida “muvaffaqiyatga erishish kaliti”ni beradigan uslublardan biri ekanligi, hech kimda shubha o‘yg‘otmaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘unlashtirishda yoshlarning xulq-atvorini shakllantirish metodlari jumlasiga *odat tusiga aylantirish; mashq qildirish* kabilar kiradi. Bunda aytaylik, *odatni shakllantirish* metodi yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirishda yoshlarning: muassasalar ichki tartib qoidalariga bo‘ysunish; o‘zining tashqi ko‘rinishiga e’tibor berish; shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish; ta’lim-tarbiya oluvchi va beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro madaniy muloqot qoidalarini buzmaslik; asosiy mehnat ko‘nikmalarini hosil qilish; madaniy hordiq chiqarish va boshqalarni rivojlantirish orqali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. *Mashq qildirish* metodi esa yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirishda, ularning irodaviy fazilatlarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tinchlantirish maqsadida ishlatiladi.

3. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘un shakllantirishda ularga motivatsiya berish va xulq-atvorini rag‘batlantirishga qaratilgan: *sog‘lom raqobatga chorlash, konstruktiv tanqid qilish, rag‘batlantirish, tanbeh berish va jazolash* kabi metodlar kiradi. “Sog‘lom ma’naviy raqobat deb, olamni yovuz kuchlardan qutqarish uchun shaxs, ijtimoiy guruh, davlat va jamiyatlarning o‘zaro jaholat ustidan g‘oliblikni ta’minlash uchun halollik va adolat, iymon va e’tiqod, tinchlik va tenglik, o‘zaro hurmat va ishonch, o‘zaro yordam va foydali hamkorlik asosida sodir etidigan o‘y-fikr va xatti-harakatlariga aytiladi”<sup>9</sup>. Bunday raqobat o‘zining quyidagi: ochiqlik va oshkoralik; ezgulikka yo‘naltirilganlik; beg‘arazlilik; do‘stonalik; halollik; insoflilik va shu kabi xususiyatlari bilan nosog‘lom ma’naviy

---

<sup>9</sup> Негматова Ш.Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. монография.- Тошкент: Фан, 2016. – Б. 108.

raqobatdan ajralib turadi. “Nosog‘lom ma‘naviy raqobat deb, olamda yovuz kuchlarning hukmronligini ta‘minlash uchun ayrim katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan shaxs, ijtimoiy guruh, davlat va jamiyatlarning o‘zaro ma‘rifatli dunyo ustidan g‘oliblikni ta‘minlash uchun g‘irromlik, aldoqchilik, vijdonsizlik, zo‘rluk, qo‘rqitish, o‘g‘rilik, qaroqchilik, ifloslik, ko‘rnamaklik, tekinxo‘rluk, tovlamachilik, firibgarlik kabilar asosida sodir etadigan eng jirkanch o‘y-fikr va xatti-harakatlarga aytiladi”<sup>10</sup> va ularga xos bo‘lgan xususiyatlarga: pinhoniyluk, yovuzlikka yo‘naltirilganlik, g‘arazgo‘ylik, dushmanlik, haromilik, diyonatsizlik, adolatsizlik va shu kabilar kiradi. Ular o‘rtasidagi kurash har xil shakllarda yuz berib yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirish ishlariga o‘zining ijobiy va salbiy ta‘sirini o‘tkazishlari, tabiiydir.

Dissertatsiyada mamlakatimizda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi”ni ishlab chiqish zarurati tahlil qilingan. Konsepsiyaning joriy qilinishi bola, o‘quvchi, talaba yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg‘un tarzda rivolantirib borish, ularning ona Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas‘uliyatlik, tolerantlik, siyosiy-huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlariga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Mamlakatning kuch qudrat tayanchi bo‘lgan yoshlarning dunyoviy bilimlarni egallashlari misli ko‘rilmagan kashfiyotlarni amalga oshirishlariga, diniy-ma‘rifiy bilimlarni o‘zlashtirib olishlari esa jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasiga mas‘uliyatsizlik, el-yurt taqdiriga befarqlik bilan qarash kabi illatlarning ildizini kesishga ma‘naviy motivatsiya beruvchi kuchga aylantiradi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, mamlakat taraqqiyoti va jamiyatning barqaror rivojlanishi yoshlarning qanday dunyoqarash asosida tarbiyalanishiga bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonda falsafiy hamda diniy-ma‘rifiy ta‘lim-tarbiya tamoyillari yoshlarning ilmiy tafakkurini, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy mas‘uliyatini va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, insonparvarlik, ilmiylik, vorisiylik, ta‘lim va tarbiya birligi kabi tamoyillar yoshlarning komil inson sifatida voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ta‘lim-tarbiyada demokratiya, yakka tartibda yondashuv, oshkoralik, hamkorlik va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi tashkiliy-uslubiy tamoyillar tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg‘unlashtirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya metodlari ta‘lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, vositalari va amalga oshirish usullarining o‘zaro uyg‘unligi asosida samarali natija beradi. Shu bilan birga, mazkur metodlar yoshlarning ongiga ta‘sir etish, xulq-atvorini shakllantirish hamda ularda motivatsiya hosil qilish kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi. Yoshlar

---

<sup>10</sup> Негматова Ш.Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. монография.- Тошкент: Фан, 2016. - Б. 108.

dunyoqarashini uyg'un rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya metodlari jamiyat ehtiyojlariga mos, tizimli, maqsadli va innovatsion yondashuv asosida tashkil etilganligina yuqori samaradorlikka erishiladi.

